

V. XIZMATLAR



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmi 16 913,0 mlrd soʻmni tashkil qildi yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 114,5 % ni, shu jumladan asosiy qismi: savdo hamda ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlari 3 959,3 mlrd soʻmni (109,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari 4 415,7 mlrd soʻm (108,9%), moliyaviy xizmatlar 3 016,0 mlrd soʻm (130,6%), transport xizmatlari 1 934,9 mlrd soʻmni (111,5%), tashkil qildi.

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan koʻrsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni oʻz ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir.

Koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi maʼlum vaqt davomida isteʼmolchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qoʻshgan holda) koʻrsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi – 71,2 %



Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi - 10 920,7 ming soʻm



Xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlikning hajmi – 12 043,2 mlrd soʻm



Xizmatlar sohasining asosiy koʻrsatkichlari
(2025-yil yanvar-sentabr)



Xizmatlar sohasi hajmining oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 114,5 %ni tashkil etdi.



**Bozor xizmatlari hajmi, o‘shish darajasi va shahar, tumanlar
kesimida taqsimlanishi
2025- yil yanvar-sentabr**

	<i>Hajmi, mlrd so‘m*</i>	<i>2024- yil yanvar- sentabriga nisbatan % da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	16 913,0	114,5	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	5 497,3	115,6	32,5
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	206,7	114,2	1,2
Baxmal	809,5	119,7	4,8
G‘allaorol	1 066,9	124,8	6,3
Sharof Rashidov	1 356,9	113,4	8,0
Do‘stlik	311,0	116,9	1,8
Zomin	846,4	113,1	5,0
Zarbdor	315,8	113,8	1,9
Zafarobod	239,9	114,8	1,4
Mirzacho‘l	169,8	114,9	1,0
Paxtakor	373,9	114,7	2,2
Forish	438,3	115,7	2,6
Yangiobod	73,0	121,3	0,4

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*

Jami xizmatlar ko‘rsatkichi tahlil qilinganida, barcha tumanlarda yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
(ko'rsatilgan) bozor xizmatlarining hajmi**


	<i>Miqdori, (mlrd so'm)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan % da</i>
Xizmatlar – jami	16 913,0	114,5	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	749,5	130,9	4,5
moliyaviy xizmatlar	3 016,0	130,6	17,8
transport xizmatlari	1 934,9	111,5	11,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	1 852,1	107,6	11,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	4 415,7	108,9	26,1
savdo xizmatlari	3 959,3	109,2	23,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	233,6	110,5	1,4
ta'lim sohasidagi xizmatlar	408,2	101,5	2,4
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	358,0	117,3	2,1
ijara xizmatlari	186,1	121,6	1,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	339,2	112,5	2,0
shaxsiy xizmatlar	380,1	112,7	2,3
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	168,3	130,6	1,0
boshqa xizmatlar	764,1	116,2	4,5

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni yashash va ovqatlanish xizmatlari (26,1 %), savdo xizmatlari (23,4 %), moliyaviy xizmatlar (17,8 %) hamda transport xizmatlari (11,4%) tashkil etdi.


Xizmatlar umumiy hajmida kam ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,0 %), ijara xizmatlari (1,1 %) hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (1,4 %) egalladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibining o'sish sur'atlari, % da

■ 2023-yil yanvar-sentabr
 ■ 2024-yil yanvar-sentabr
 ■ 2025-yil yanvar-sentabr




Xizmatlar tarkibida korxonalarining toifalari bo'yicha ulushlarining o'zgarish dinamikasi, % da



■ 2023- yil yanvar-sentabr ■ 2024- yil yanvar-sentabr ■ 2025- yil yanvar-sentabr

Bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari eng yuqori ulushni (sentabr %) tashkil etdi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulushni tashkil etadi – 51,8 %, avtomobil ulgurji va chakana savdo xizmatlari 34,4 % va ulgurji savdo xizmatlari 13,8 % ni tashkil etdi.



**Savdo xizmatlari hajmi, o‘shish darajasi va shahar, tumanlar
kesimida taqsimlanishi**
2025- yil yanvar-sentabr


	<i>Hajmi, mlrd so‘m*</i>	<i>2024- yil yanvar- sentabriga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	3959,3	109,2	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax	315,3	102,0	33,2
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	80,3	106,3	2,0
Baxmal	330,4	120,5	8,3
G‘allaorol	589,1	125,5	14,9
Sharof Rashidov	355,1	104,9	9,0
Do‘stlik	124,5	111,2	3,1
Zomin	258,7	105,9	6,5
Zarbdor	115,1	106,6	2,9
Mirzacho‘l	78,4	106,2	2,0
Zafarobod	62,2	106,4	1,6
Paxtakor	130,1	107,4	3,3
Forish	138,2	103,6	3,5
Yangiobod	26,7	98,6	0,7

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*

Savdo xizmatlari tahlil qilinganida, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari G‘allaorol (125,5 %), Baxmal (120,5 %) va Do‘stlik (111,2 %) tumanlarida kuzatildi.


Yuqori bo‘lmagan o‘shish sur‘ati esa, Yangiobod tumanida (98,6 %) qayd etildi.

Savdo xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi, % da 2025- yil yanvar-sentabr



Savdo xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lgan hududlar Jizzax shahri (33,2 %), G'allaorol (14,9 %), Sharof Rashidov (9,0 %), Baxmal (8,9 %) va Zomin (6,5 %) tumanlari bo'ldi.

Transport xizmatlarining tarkibi, % da 2025- yil yanvar-sentabr



Xizmatlar tarkibida transport xizmatlari ulushi 11,4 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar hajmi oshishining asosiy omillari – bu yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining ulushi 95,8 % bilan asosiy ustunlikka ega.


**Transport xizmatlari hajmi, o‘shish sur‘ati va
hududlar kesimida taqsimlanishi**
2025- yil yanvar-sentabr

	<i>Hajmi, mlrd so‘mda*</i>	<i>2024- yil yanvar-sentabriga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da</i>
Jizzax viloyati	1 934,9	110,5	100,0
<i>shahar:</i>			
Jizzax sh.	385,5	111,4	19,9
<i>tumanlar:</i>			
Arnasoy	11,5	106,1	0,6
Baxmal	249,7	111,4	12,9
G‘allaorol	126,8	110,4	6,6
Sharof Rashidov	481,3	109,0	24,9
Do‘stlik	58,8	114,9	3,0
Zomin	141,2	108,0	7,3
Zarbdor	53,3	109,5	2,8
Mirzacho‘l	16,9	109,1	0,9
Zafarobod	12,4	107,1	0,6
Paxtakor	44,9	111,7	2,3
Forish	134,1	114,2	6,9
Yangiobod	10,3	119,2	0,5

**) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda.*

Tumanlar o‘rtasida transport xizmatlari bo‘yicha o‘tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiobod (119,2%), Do‘stlik (114,9%), Forish (114,2 %) va Paxtakor (111,7 %) tumanlarida qayd etildi.

**Transport xizmatlarining umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da
2025- yil yanvar-sentabr**




Transport xizmatlari bo'yicha yuqori ulushga ega hududlar sifatida Sharof Rashidov (24,9 %), Jizzax shahri (19,9 %), Baxmal (12,9 %), Zomin (7,3 %) va Forish (6,9 %) tumanlari qayd etildi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi insonning zamonaviy turmush tarziga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Yildan-yilga odamlar internet va mobil telefonlardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Zamonaviy biznesni rivojlantirishda axborot va xizmatlardan real vaqtda masofaviy erkin foydalanish huquqi muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda Jizzax viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) davlat boshqaruvi tizimida, iqtisodiyotning tarmoqlarida, ijtimoiy soha va odamlarning kundalik hayotida joriy etishni izchil amalga oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.


2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 749,5 mlrd so'mga teng bo'ldi. 2024- yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishi 130,9 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o‘rnatilishi sur‘atlari, % da



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (57,1 %) telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet, yo‘ldosh aloqa xizmatlari va h.k.) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da 2025- yil yanvar-sentabr




Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va moliya-kredit muassasalari xizmatlari tez rivojlanayotgan xizmat turlari hisoblanadi. Yangi texnologiyalarga va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayanib, bu faoliyat turlari hozirgi vaqtda rivojlanishning yangi bosqichi sifatida paydo bo'ldi va bugungi kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, AKT sohasida innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


Pul-kredit tizimini isloh qilish dasturida bank tizimini barqarorligini ta'minlash, xalqaro standartlarga muvofiq bank faoliyatini yanada takomillashtirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, bank va sug'urta tashkilotlariga ko'rsatiladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi xizmat turlarini joriy etish, moliyaviy xizmatlar hajmini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Natijada, 2025- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlar hajmi 3 016,0 mlrd so'mga yetdi va o'sish sur'ati 130,6 % ni tashkil qildi.

Jizzax viloyatida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari dinamikasi, % da



Moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da
2025- yil yanvar-sentabr



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish (kredit berish va depozit hisob raqamlarni ochish bo'yicha elektron xizmatlar ko'rsatish) borasida amalga oshirilayotgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmining oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar ulushi (95,5%) ustunlik qilmoqda. Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta xizmatlarining ulushi 3,8 % ni, yordamchi moliyaviy faoliyat 0,7 % ni tashkil etdi.

Bozor xizmatlarining hajmi, o‘shish sur‘ati va aholi jon boshiga hududlar kesimidagi holati

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so‘m*	2024- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so‘m	2024- yil yanvar-sentabriga nisbatan % da
Jizzax viloyati	16 913,0	114,5	100,0	10 920,7	112,3
<i>shahar:</i>					
Jizzax	5 497,3	115,6	32,5	27 308,9	113,4
<i>tumanlar:</i>					
Arnasoy	206,7	114,2	1,2	4 158,8	112,6
Baxmal	809,5	119,7	4,8	4 610,1	117,2
G‘allaorol	1 066,9	124,8	6,3	5 556,6	122,4
Sharof Rashidov	1 356,9	113,4	8,0	5 399,4	110,6
Do‘stlik	311,0	116,9	1,8	4 361,5	115,3
Zomin	846,4	113,1	5,0	4 563,0	110,5
Zarbdor	315,8	113,8	1,9	3 249,2	111,5
Mirzacho‘l	239,9	114,8	1,4	4 239,1	113,2
Zafarobod	169,8	114,9	1,0	3 098,5	113,2
Paxtakor	373,9	114,7	2,2	4 510,7	112,7
Forish	438,3	115,7	2,6	4 374,0	114,3
Yangiobod	73,0	121,3	0,4	2 407,7	120,1

*) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda

Xizmatlar sohasining rivojlanishida eng katta ulush Jizzax shahri (32,5 %), Sharof Rashidov (8,0 %) va G‘allaorol (6,3 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


Jizzax viloyati bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da
2025- yil yanvar-sentabr



Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng kichik ulushlar Yangiobod (0,7 %), Zafarobod (1,6 %) va Arnasoy (2,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida (27 308,9 ming so'm) bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar bo'yicha hajmi va o'sish sur'ati, % da
2025- yil yanvar-sentabr



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Yangiobod (2 407,7 ming so'm), Zafarobod (3 098,5 ming so'm) va Zarbdor (3 249,2 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha
xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati, % da
2025- yil yanvar-sentabr**



2024-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 108,9 % ni tashkil qildi, hajmi esa 732,9 mlrd so'mga ko'payib, 4 415,7 mlrd so'mga yetdi.


Ushbu turdagi xizmatlar o'sish sur'atlarining ko'payishida dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi ko'payganligi sezilarli ta'sir etganligini qayd etish lozim.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da 2025- yil yanvar-sentabr



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining asosiy qismini oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi (94,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari 2025- yil yanvar-sentabr



Qayd etish joizki, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Jizzax shaxrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga kopaydi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 2,4 % ni tashkil etib, hajmi 408,2 mlrd so'm, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Arnasoy tumanida 67,5% ga o'sib, bu sohada yetakchilik qilmoqda.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari, % da





Xizmatlar ko'rsatishning mazkur sohasida yuqori o'sish sur'atlari Sharof Rashidov (167,5 %), Forish (118,3 %), Baxmal (118,2 %) va Zafarobod (118,1 %) tumanlarida kuzatildi.

2025-yil yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi jami 358,0 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 117,3 % ga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'ati Zarbdor (160,7 %), Zafarobod (163,0 %) va Sharof Rashidov (150,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatilgan xizmatlarning hududlar bo‘yicha o‘shish sur‘atlari, % da



2025-yil yanvar-sentabr oylarida sog‘liqni saqlash xizmatlari hajmi 358,0 mlrd so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.

2024-yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 117,3 % ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun:

2024- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmatlar hajmi 266,4 mlrd so‘mni yoki umumiy xizmatlar hajmining 2,0 % ini tashkil etgan.

Sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar Zafarobod (163,0%) va Zarbdor (160,7 %) tumanlari nisbatan yuqori o‘shish sur‘atiga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.